



UO'T: 633.5.631.1

KO'CHAT QALINLIGINI TAKRORIY EKILGAN SHOLI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

Sotvoldi Tursunov 

Namangan Davlat Texnika Universiteti professori
e-mail: sotvolditursunov.nammti@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada takroriy ekin sifatida sholini ko'chat usulida yetishtirish texnologiyasi va afzalliklari, hosil salmog'ini oshirishdagi o'rni haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sholi, ko'chat, o'sish, rivojlanish, ekish muddati, hosildorlik, ko'chat qalinligi, don

Аннотация. В сефее описаны технология и преимущества выращивания рассада в качестве дублирующей культуры и его роль в повышении продуктивности.

Ключевые слова: рис, рассада, рост, развитие, дата посадки, урожайность, толщина рассады, зерно

Abstract. The article describes the technology and advantages of cultivating a graft as a duplicate crop and its role in raising productivity.

Keywords: Rice, seedlings, growth, development, planting date, yield, seedling thickness, grain

KIRISH

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning eng muhim va ustuvor tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi bo'lib uning taraqqiyoti boshqa ko'p sohalarning rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik tufayli mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tizimida ham tub isloxtlar amalga oshirilyapti. Tarmoqni yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilmoqda.

Keyingi yillarda Respublikamizda g'alla-don ekinlari ekin maydonlarining ko'paytirilishi g'alladan bo'shagan maydonlarda keng miqyosda takroriy ekinlar yetishtirish imkoniyatini bermoqda.

Serquyosh yurtimizning sug'oriladigan maydonlarida suv yetarli bo'lgan sharoitda takroriy ekinlar yetishtirib mo'l hosil olish imkoniyati mavjud, lekin

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

mamlakatimizning mo'l-ko'l harorati, yoruqligi, tuproq unumdorligini oshirish uchun ichki imkoniyati yetarli bo'lsada bundan hozircha unumli foydalanilmayapti.

Xususan mamlakatimizda issiq va iliq haroratli kunlar 220 - 260 kunni, bulutsiz xaroratli kunlar 5-6 oyni tashkil etadi, yozgi yorug' kun 15 soat davom etadi, quyosh yog'dusi esa yiliga 2500-3000 soatga yetadi. Ayni paytda g'o'za - bug'doy navbatlab ekishning kuzgi bug'doy dalasi kechi bilan 20-iyundan 1-noyabrga qadar bo'sh qolib, yerning umri bekorga o'tmoqda.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Hozirgi kunda g'alladan bo'shagan yerlarning bir qismiga takroriy ekin sifatida sholini ko'chat usulida yetishtirishning afzalliklari katta.

Sholichilik g'allachilikning muhim tarmog'i bo'lib, asosiy oziq-ovqat resurslaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning guruch mahsulotlariga bo'lgan extiyojini yanada to'laroqqondirishda sholi hosildorligini oshirishda sholini ko'chat usulida yetishtirishning ahamiyati katta. Bu usul talaygina afzalliklarga ega. Ko'pgina sholi navlarini ko'chat usulida yetishtirib olishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi va tegishli tavsiyalar yaratildi. O'zbekistonda mavjud ekishga tavsiya qilingan navlar barcha ko'rsatgichlari va potensial imkoniyatlari darajasi bo'yicha jaxonda eng yaxshi deb topilgan sholi navlari qatoriga kiradi.

Tajriba natijalari. Sholining ko'chat usulida yetishtirilishi sholi urug'ini to'g'ridan - to'g'ri ekkanga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- Sholi urug'i ko'chatxonaga ekilishi munosabati bilan kech kuzga qolmasdan sholi hosilini yig'ishtirib olish imkonini yaratadi;
- Ko'chat usuli har bir yerdan unumli foydalanib, ikki marta (bug'doy-sholi) g'alla hosili olish imkoniyatini yaratadi;
- Sholi urug'ining 60-70 % i iqtisod qilinadi;
- Sholi ko'chat davrining 30-35 kuni ko'chatxonada o'tishi munosabati bilan suv sarfi 20-25 % ga qisqaradi;
- Sholi hosildorligi esa sholi urug'ini to'g'ridan-to'g'ri dalaga ekkanga nisbatan 15-30 % yuqori bo'ladi.

Takroriy ekin sifatida ko'chatxonalarga 20-30 mayda urug' ekildi. Asosiy maydonga 20-30 iyunda ko'chat ko'chirib o'tkazildi. Bunda ko'chatxonalarga gektar hisobida 20-22 mln dona yoki 650-750 kg sholi urug'i sepiladi. Agar sholi sepiladigan bo'lsa, urug'lik sholi namlab ekiladi. Ko'chatxonada sholi niholini olishda suv rejimi va boshqa amaliy ishlar umumiy tavsiya etilgan agrotexnika asosida olib borildi. Ko'chatxonada sholi 30-40 kunda ko'chat qilish uchun tayyor holga keldi. Ko'chatlar 25-30 kunligida 5 kg/ga hisobida azot o'g'iti bilan oziqlantirildi. Bir haftadan so'ng ko'chatlar asosiy maydonga o'tkazildi, ya'ni bu sholing tuplanish davrining boshlanishiga to'g'ri keladi.

Asosiy maydondan donli ekin o'rib - yig'ib olingandan so'ng, zudlik bilan yer 18-20 sm chuqurlikda haydaldi. Yer haydalganda o'simlik qoldiqdarini to'la ko'mishga erishish kerak. Ko'chat ekishda yer tekisligi asosiy ko'rsatkich bo'lib,

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

±3 sm ni tashkil qiladi. Tayyor bo'lgan sholipoyaga 5-7 sm suv qalinligida ko'chat qo'lda 3-4 sm chuqurlikka o'tkazildi. Ko'chatlar ko'chatxonadan olinayotganda ildiz va barglarining 1/3 qismi kesib tashlanib, 150-200 ta o'simlikdan iborat bog' tayyorlandi. Tayyor bo'lgan bog'-bog' ko'chatlar sholipoyada, asosiy maydonga keltirib o'tkazgunga qadar ham suvda turushi kerak.

Ko'chatlar asosiy maydonga bir uyaga 1-2 ko'chat ekildi. Uya oraligi 10-15 sm qilib ekish tavsiya qilinadi. Bunda gektariga 65-100 ming tup ko'chat sarflandi. Sholipoyadagi suv rejimi umumiy agrotexnik talablar asosida olib borildi.

Asosiy maydonga sholi ko'chati o'tkazilgandan so'ng birinchi o'g'it 3-5 kundan keyin RK 40 kg/ga hisobida berildi. 30 kundan keyin. Ya'ni sholi 7-9 bargli bo'lgan davrda ikkinchi o'g'it berildi, bunda 40 kg/ga xisobida berildi. Suv rejimi iyulni oxiriga qadar umumiy agrotexnik talablar asosida amalga oshirildi.

Sholini ko'chat usulida o'stirishda maydon birligidagi o'simliklar sonini to'g'ri belgilashni ahamiyati katta. Biz shu masalani o'rganish maqsadida tajriba o'tkazdik. Tajriba quyidagi tizimda o'tkazildi.

1-variant. Sholi ko'chati 15 x 15 - 1 sxemada ekildi.

2-variant. Sholi ko'chati 15 x 15 - 2 sxemada ekildi.

3-variant. Sholi ko'chati 15 x 15 - 3 sxemada ekildi.

Tajriba 3 ta variantdan iborat bo'lib 4 qaytariqda o'tkazildi.

1 ta variantning egallagan maydoni 10 x 10 = 100 m²

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ekinlarning hosildorligi hosil elementlarining tarkibi va miqdori bilan belgilanadi. Shuning uchun biz tajribada hosil sutrukturasini aniqladik.

Hosil strukturasini aniqlash uchun maydon birligidagi o'simliklar sonini, ularni umumiy va mahsuldor tuplanganligini, donlar sonini va vaznini 1000 dona don og'irligini aniqlash kerak.

Tajriba variantlaridan olinadigan sholi hosildorligini aniqlash uchun har bir variant hosilini alohida o'rib oldik va chiqqan donni alohida-alohida tortdik va keyin bir gektar yerdan olish mumkin bo'lgan hosildorlikni hisobladik.

Tajribada sholi hosildorligi

T/r	Variantlar	Qaytariqlar				O'rtacha
		I	II	III	IV	
1	15x15-1	79,5	77,3	76,3	78,2	77,9
2	15x15-2	94,4	96,3	93,6	96,0	95,1
3	15x15-3	101,4	100,7	99,8	102,2	101,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib to'ribdiki tajribani birinchi variantida gektaridan 77,5 sentner hosil olingan bo'lsa, tajribani ikkinchi variantdan 95,1 sentner hosil olingan. Uchinchi variantida esa 103 sentner hosil olindi.

Ikkinchi variantdan birinchi variantga nisbatan gektaridan 17,2 sentner yuqori hosil olindi. Uchinchi variantda esa 23,1 sentner qo'shimcha hosil olindi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

XULOSA

Tajriba natijalariga asoslanib bug'doydan bo'shagan yerga sholining ko'chatini 15x15-2 va 15x15-3 sxemalarda ekishni tavsiya qilamiz. Bunda sholi hosildorligi yuqori bo'lishi taminlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ergashev.M "Urug'likmi yoki ko'chat?" "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali. Toshkent, 2006-y. №3.
2. Jumanov M. "Sholini ko'chat qilib o'stirish."// "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali.
3. Tursunov S. "Donchilik". Toshkent, 2025-y.
4. Tursunov S. "O'simlikshunoslik". Toshkent, 2019-y.
5. Tursunov S. "Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi." Toshkent 2013 y.